

AMALIY BEZAK SAN'ATI

Qahhorova Dilafruz Farhodovna

Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Pedagogik ta'lim fakulteti,
San'atshunoslik" kafedrasii llbosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning amaliy bezak san'ati uning turlari zardo'zlik, kashtachilik, ganchkorlik naqshlarning turlari haqida ma'lumot beradi. Amaliy bezak san'atining asosiy badiiy usullari bo'lmish naqshlar haqida tushuncha berib boriladi. Shuningdek amaliy san'atning bu turi qadimiy bo'lib, asrlar osha takomillashib, rivojlanib kelgan. Bizning davrimizga kelib amaliy bezak san'ati rivojlanib shuhrati dunyoga mashhur bo'lmoqda. Amaliy bezak san'atida naqsh va rang uzviyligi alohida o'rin tutadi. Qaysi bir tasvirni olmaylik har birining zaminida ma'lum bir ma'no bor. Maqolada amaliy bezak san'atining bir qismi bo'lmish zardo'zlik va kashtachilik tarix va ularning ramziy shakllari xususida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: amaliy bezak san'ati, estetik hissiyot, badiiy did, amaliy san'at turlari.

ПРИКЛАДНОМУ ДЕКОРАТИВНОМУ ИСКУССТВУ

Каххорова Дилафруз Фархадовна

Магистрант II ступени кафедры искусствоведение" факультета педагогического образования Педагогического института Бухарского государственного университета

Аннотация: В статье представлены сведения о прикладном декоративно-прикладном искусстве Узбекистана, его видах: ювелирном деле, вышивке, узорах вышивки. Дано представление об узорах, которые являются основными художественными приемами прикладного декоративно-прикладного искусства. Также этот вид прикладного искусства является древним и веками совершенствовался и развивался. К нашему времени искусство практического декорирования развивается и становится известным во всем мире. Узор и цветовая гармония занимают особое место в практическом декоративно-прикладном искусстве. Какое бы изображение мы ни взяли, за каждым из них стоит определенный смысл. Статья посвящена

истории и символическим формам ювелирного дела и вышивки, входящих в состав декоративно-прикладного искусства.

Ключевые слова: прикладное декоративно-прикладное искусство, эстетическое чувство, художественный вкус, виды прикладного искусства.

APPLIED DECORATIVE ARTS

Kakhhorova Dilafuz Farhadovna

Master student of the 2st stage of the Department of Art History "of the Faculty of Pedagogical Education of the Pedagogical Institute of the Bukhara State university

Annotation: *The article provides information about the practical decorative art of Uzbekistan, its types, goldsmithing, embroidery, and embroidery patterns. An understanding of patterns, which are the main artistic methods of practical decorative art, is given. Also, this type of applied art is ancient and has been improved and developed over centuries. By our time, the art of practical decoration is developing and becoming famous all over the world. Pattern and color harmony occupy a special place in practical decorative art. No matter which image we take, there is a certain meaning behind each of them. The article focuses on the history and symbolic forms of goldsmithing and embroidery, which are part of applied decorative arts.*

Key words: *applied decorative art, aesthetic feeling, artistic taste, types of applied art.*

O'zbek milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang - barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit

bilan bog'liq holda barcha kasb hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV - XV - asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. 1467 - yili Kamoliddin Behzod Zafarnoma» ga ishlagan «Temur taxtda» > miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX - asming ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi . Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak , unda Hind , Xitoy . Rus , Afg'on , Qozoq . Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarni uchratamiz . Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi . Ramziy shakllar sifatida gullar , qush va mevalar ko'p tasvirlanadi . Hayvonlar , shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi . Qadimiy an'analarga ko'ra , o'zbek qizlari bo'lajak kelinchaklar seplari - har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi . Kashtalar qanchalik nozik , chiroyli bo'lsa , qayliq shunchalik yuqori baholanar edi . Qizlar 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi . Ular uch , to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar . Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar . Kashtachilikning muhim turlaridan biri zardo'zlikdir . Zardo'zlik hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan aqsh (kashta) tikish kasbi . U forscha zar (tilla) , do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi . Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega . Zardo'zlikning vatani Vavilon bo'lib , u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgan , zar , ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang - barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan . Vizantiyada zardo'zi kiyim - kechaklarni faqat imperator ayonlari , aslzodalar kiyishgan . Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo'zlik san'ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan . Eronda zardo'zlik san'atining rivojlanganligiga XV - XVII - asrda ishlangan zardo'zlik namunalari misol bo'la oladi . Vizantiyadan Qadimgi Rusga ham zardo'zlik san'ati kirib keldi .Kichik Osiyo doirasida zardo'zlik XIII - va XV - asrlarda ham rivojlandi . Xullas Vizantiya kayerga ta'sirini o'tkazgan bo'lsa o'sha yerda zardo'zlik rivojlangan . O'rta Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir . Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki , O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I - II - asrlarda zarbof kiyimlar , badiiy buyumlar keng tarqalgan . 1947 - yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog'ida o'tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I - II -

asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan . Abdurazzoq Samarqandiy « Hindiston safarnomasi » asarida 1442 yili Shohrux zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o'rtasida turgan elchilarning sovg'alari orasida zarbof kiyimlar bo'lganligini aytib o'tgan . 1465 - yili « Ashratxona » maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o'tgan . Hirotda yashab ijod etgan Vasfiy o'zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo'zlik kasbi to'g'risida bayon etgan . XVII - asrda yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lgan , u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan . XIX - XX - asr boshlarida zardo'zlikning o'ziga xos maktabi yaratilgan . O'zbekistonda Buxoro , Samarqand , Farg'ona va boshqa joylardantayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan . Bu kiyim - kechaklar asosan amir saroyidagilar , shahar boylari uchun tikilgan . Yuzlab qo'li gul ustalar hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlagan . O'rta Osiyoning mohir ustalari qulida barq urib gallagan Buxoro zardo'zlik san'ati o'zining badiiy qiymati bilan muhim o'rin tutadi. Necha azlar davomida usta zardo'zla tishning eng ajoyib yo'llarini topdilar va uni takomillashtirdilar. Ranglardagi nazokatni chuqur his etilgan holda ochiq rangli shoyilar zardo'zlikka tatbiq etila boshlandi. Milliy naqshlarning ayrim elementlari va kompozition tuzilishlari beqiyos xayolor mansali ekanligi aslo sir emas. An'anaviy talqinlarning kong miqyosda qo'llanilishi va an'anaviy kompozition semalaming molligiga qaramay, bunda qurib qolgan nitiza yoki shablondan asar ham ko'rmaymiz. Bular hammasi ustalarning Labikizan xalqlari madaniy merosi xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladigan chinakam san'at durdonalar yarashiga imkon beruvchi zgin ijodiy mehnatdan darak berib turibdi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda kelib jahonning qaysi bir rivojlangan mamlakatni olmaylik ta'lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san'at xususan tasviriy va amaliy san'at tadqiqot bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Amaliy san'ati sohasi ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari asbob anjomlar, mebel, zarharlik, zardo'zlik, naqqoshlik, ganchkorlik yog'och o'ymakorligi, kabi badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish anglashga mo'ljallangan. Shuning uchun ham Usta zardòzlar va rassom ijodkorlar tomonidan yaratilayotgan yirik mavzuli zard'òzi buyumlar respublikava va chet mamlakatlar kòrgazmalarida namoyish etilmoqda .

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bulatov S.S. Naqqoshlik .- Toshkent: " Fan va texnologiya " ,2010
2. Zohidova D.Hunarmandchilikka kirish. - T.: UMKXTRI . 2001
3. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya.-T.: Iqtisod- moliya, 2007
4. Mamurova D. I . Amaliy bezak san'ati . " Durdona" nashriyoti Buxoro - 2021.
- 5.Rahim.H. Tasviriy san'at asoslari G'afur G'ulom nashriyot matbaa-ijodiy uyi .Toshkent- 2009.
6. Nabiyev M Rangshunoslik.- Toshkent : O'qituvchi ,1996.
Elektron ta'lim resuslari .
 - 1.www. tdpu.uz
 - 2.www.pedagog.uz
 - 3.www. ziyonet .uz